


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 783,3 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	15 768,5	18 783,3	106,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 436,8	18 356,5	106,6
mahsulotlarga sof soliqlar	331,7	426,8	112,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 436,8	18 356,5	106,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 237,4	2 597,7	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 384,0	5 345,1	109,9
sanoat	3 162,7	3 891,1	107,4
qurilish	1 221,3	1 454,0	116,5
xizmatlar	8 815,4	10 413,7	105,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 884,6	3 406,4	108,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 239,6	1 664,6	112,9
boshqa xizmat tarmoqlari	4 691,2	5 342,7	102,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 4 522,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14,5	14,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	28,4	29,1
sanoat	20,5	21,2
qurilish	7,9	7,9
xizmatlar	57,1	56,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,7	18,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,0	9,1
boshqa xizmat tarmoqlari	30,4	29,0

2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 14,2 % ni, sanoat tarmog'i 21,2 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 56,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,2 %), sanoatda – 107,4 % (21,2 %), qurilishda – 116,5 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (56,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,3 % (18,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,9 % (9,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,0 % dan (29,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



5,6 %

YAHM

6,7 %



4,0 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,2 %



7,0 %

Sanoat

7,4 %



7,2 %

Qurilish

16,5 %




5,2 %

Xizmatlar

5,6 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,6 % va xizmatlarda – 111,9 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 12 531,4 mlrd so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida– 10 681,3 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 68,3 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 69,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd so'm

Ulushi, % da

2024- yil

10 681,3

69,2 %

2025- yil

12 531,4

68,3 %

